

DFF¹ - ABN MB

Mamlakat:	O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami:	49590
Faoliyat sohasi:	Agrosanoat korxonasi
Xabarnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi	B
Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:	2018-yil, 17-oktabr
Qaysi bosqichda ekanligi:	Konsepsiya ko‘rib chiqilgan
Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) chop etilgan sana:	

Loyiha mazmuni

Keng iste‘mol mollari sirasiga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha mavjud korxonalarni kengaytirish va O‘zbekistonning Toshkent shahrida umumiy ovqatlanish tarmog‘ini rivojlantirish uchun 2,0 mln AQSH dollarini miqdoridagi mablag‘ni qarz sifatida berish, buning natijasida kompaniyaning amaliyot ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi.

Loyiha maqsadi

Olingan qarz mablag‘lari yordamida omborxonalar kengaytirilishi, pivo va xamirli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvati oshirilishi, muzqaymoq tarqatish tarmog‘i rivojlantirilishi, shuningdek, mavjud qahvaxonalar tarmog‘i kengaytirilishi moliyalashtiriladi.

O‘tish davri ta’siri

Loyihaning o‘tish davri ta’siri uning raqobatbardosh va yaxshi boshqariluvchi sifatga qo‘shgan hissasi, xususan esa, kompaniyani quyidagicha qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi:

- (i) ishlab chiqarish va saqlash samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish quvvati va muayyan mahsulotlarni sotish tarmog‘ini kengaytirish;
- (ii) korporativ boshqarish standartlarini takomillashtirish, xususan, kompaniyaning hisobotlarini IFRS²ga muvofiq joriy qilish va yuritish.

¹ DFF – (Direct Finance Framework) – Bevosita moliyalashtirish mexanizmi

² IFRS – (international financial reporting standards) – moliyaviy hisobning xalqaro me‘yorlari

Mijoz haqida ma'lumot

“ABN-MB” MCHJ qo'shma korxonasi

“ABN-MB” MCHJ qo'shma korxonasi O'zbekistonda ro'yxatga olingan kichik va o'rta biznes kompaniyasi hisoblanib, u Toshkentdagi qahvaxonalar va restoranlarning mashhur mahalliy tarmog'ini boshqaradi. Shuningdek, bu kompaniya shokolad, xamirli qandolat mahsulotlari, ichimliklar va muzqaymoq singari qator oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'

2,000,000.00 AQSH dollari

2,000,000.00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

4,000,000.00 USD

2,000,000.00 USD

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Mazkur loyiha B toifasiga kiritildi, chunki kompaniyaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ekologik va ijtimoiy xavflar muayyan obyekt uchun alohida hisoblanadi va ular xavfni kamaytirishning standart chora-tadbirlari orqali oson hal qilinadi.

Ushbu loyiha bo'yicha ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD³) mustaqil maslahatchilar tomonidan o'tkazilgan bo'lib, ular “ABN-MB” MCHJ xodimlari bilan uchrashganlar hamda O'zbekistonning Toshkent shahridagi kompaniyaning ishlab chiqarish obyektiga tashrif buyurganlar.

ESDD e'tirof etishicha, umuman, mavjud obyektlar va ko'zda tutilayotgan loyiha ekologiya, xavfsizlik hamda mehnatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan xavfi kam deb topildi. Kompaniyaning ishlab chiqarish obyekti Bektemir tumani maxsus sanoat hududida joylashgan bo'lib, bu obyektning ushbu hududda mavjud barcha ekologik va ijtimoiy subyektlar uchun xavfi past hisoblanadi. Barcha ruxsatnomalar olingan.

“ABN-MB” MCHJ rahbariyati atrof muhit, salomatlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (EHSS⁴) tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilishini ta'kidlaniga qaramay, kompaniyaning atrof muhit, salomatlik, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo'yicha o'zining rasmiy siyosati, tizimi va tartibi mavjud emas. Ularni ishlab chiqish mijoz bilan kelishilgan holda ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasiga (ESAP⁵) kiritildi. Shuningdek, mazkur ESAP EHSS bo'yicha mavjud resurslarni takomillashtirish bo'yicha bandlarni hamda EHSS bo'yicha maxsus xodimning tayinlanishini ham o'z ichiga oladi. YTTB yillik hisobotlarni tahlil qilish va bank xodimlarining kompaniya obyektlariga tashrif buyurish orqali ushbu loyihani nazorat qiladi.

Texnik ko'mak

Texnik ko'mak mijoz bilan bank o'rtasida birgalikda moliyalashtirilishi kelishib olindi. Bu quyidagi majburiyatlarni o'z ichiga oladi:

(i) buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy usullardan foydalanish va uni takomillashtirish;

³ Environmental and Social Due Diligence

⁴ Environmental, Health and Safety, and Social

⁵ Environmental and Social Action Plan

(ii) oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va umumiy ovqatlanish sohasida eng ilg'or xorijiy amaliyotlar bo'yicha xalqaro maslahatlarni olish;

(iii) loyiha uchun tijorat va texnik asoslanganlik bo'yicha baholashni o'tkazish;

(iv) ekologik va ijtimoiy ekspertiza va maslahatlar berish.

Bundan tashqari, Bank tomonidan loyihani moliyalashtirishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismini qoplash uchun yuridik ekspertiza xarajatlarini moliyalashtirishda texnik ko'mak ko'rsatildi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Shuhrat Kayumov

shkayumov@abnmbgroup.com

+998712442701

www.abnmbgroup.com

O'zbekiston, Toshkent shahar, Furqat ko'chasi, 5-uy.

Biznes hamkorlik

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Umumiy so'rovlar

Xarid masalalaridan tashqari YTTB loyihalariga tegishli ma'lumotlar uchun:

Tel: +44 20 7338 7168; Faks: +44 20 7338 7380;

Elektron manzil: projectenquiries@ebrd.com

Axborot siyosati

Axborot siyosati YTTBning strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni ommaga qanday taqdim etilishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Axborot siyosati matni](#)

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi

Project Complaint Mechanism (PCM), ya'ni loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi YTTBning ma'suliyatni o'z zimmasiga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxslar va tashkilotlarning YTTB moliyalashtirgan loyihalarning biror zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin bo'lgan holatlarga oid shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

[PCM tartibga soladigan qoidalar | Ruscha talqini](#)

PCM bo'yicha har qanday shikoyatlar YTTB mablag'lari so'nggi taqsimlangan paytdan boshlab 12 oy ichida berilishi zarur. Agar qachon shikoyat berilishi kerakligi haqida aniq to'xtamga kelmagan bo'lsangiz, yordam uchun shikoyatlar bilan ishlashga ma'sul mutaxassisga (pcm@ebrd.com) yoki tegishli YTTB vakolatxonasiga murojaat qilishingiz mumkin.